Xorijdagi matematik vatandoshlar bilan vebinarlar davom etmoqda

O’zR FA Matematika instituti tashabbusi bilan Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan matematika sohasidagi kafedra mudirlari hamda professor-o’qituvchilar uchun xorijiy yetakchi oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda “onlayn” malaka oshirish darslari vebinar shaklida tashkil etilmoqda. 2020-yil 7-iyul kuni vebinarda MARA texnologiyasi universtiteti, Malayziya (Universiti Teknologi MARA -UiTM) professori Isomiddin Raximov ma’ruzachi sifatida ishtirok etdi. Vebinarda Malayziya davlatida matematika fani va uning rivoji uchun yaratilgan sharoitlar, universitetlarda matematika ta’lim yo’nalishdagi va boshqa yo’nalishdagi talabalariga matematika fanini o’qitish metodologiyasi, rejalari va dasturlari hamda ilmiy faoliyatlarning qanday tashkil etilganligi to’g’risida ma’lumot berildi.